



## **ILOHIY KITOBLARDA YUSUF VA ZULAYHO OBRAZI GENEZISI**

***Berkiyeva Marhabo Ravshanbek qizi***

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada Yusuf haqidagi qissalar genezisi ilohiy-muqaddas kitoblar bilan bog'liq ravishda tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:*** Qur'oni Karim, Tavrot, Zabur, Injil, , mif.

***Annotation:*** This article analyzes the connection between the stories about Joseph and the divine-sacred books.

***Keywords:*** Quran, Torah, Psalms, Bible, myth.

Qiziqarli syujeti bilan keng jamoatchilik orasida katta shuhrat qozongan mashhur dostonlardan biri “Yusuf va Zulayho” asari bo‘lib, Qur’oni Karimda “Yusuf” surasi bilan keltirilgan syujet ildizi juda qadimiydir. Atoqli folklorshunos olim X.G. yozganidek, Korogli bu asardagi “Yusuf” biografiyasini “Avesto”dagi Siyovush obrazi bilan bog‘lagani ham bejiz emas. Syujet dastlab turli rivoyat va afsonalar shaklida turli an‘analar orqali tarqalgan bo‘lib, keyinchalik arablar yozma adabiyotiga ko‘chib o‘tgan va Abulmuayyon Balxiy, Baxtiyoriy kabi adiblar ijodida o‘z aksini topgan. Bu mavzuda tadqiqotlar olib brogan turkman olimi Gelde Nazarov va o‘zbek olimasi Hilola Safarovalar tomonidan ishlab chiqilgan jadvallarda ko‘rsatilganidek, “Yusuf va Zulayho” dostoni syujeti asosida 17 tilda 130 dan ortiq asarlar yozilgan. Ulardan 50 tasi fors, 30 tasi turkiy, 7 tasi o‘zbek, 6 tasi arab, 6 tasi boshqa tillarda yaratilgan, hatto nemis va latviyalik ijodkorlar ham ushbu syujet asosida go‘zal asarlar yaratishgan.

Yusuf va Zulayho ishqiy sarguzashti haqidagi syujetning tarixi arab va yaxudiy xalqlarinig qadimiy og‘zaki ijodiga borib taqalsa-da, uni faqat shu xalqlarning qadimiy og‘zaki ijodigagina bog‘lab ko‘rsatish bir tomonlamalik bo‘lur edi. Chunki boshqa xalqlar og‘zaki ijodida ham Yusuf va Zulayho mavzusidagi



afsona, rivoyat va ertaklar uchraydi. Chunonchi, tatar olimlari Yusuf va Zulayho mavzusidagi ayrim lavhalarning ma'naviy ildizlarini Vavilonda yaratilgan (eramizdan avvalgi 3-4 mingyillik) Tamuza va Ishtar, siro-finikiyaliklar ijodiga daxldor (eramizdan avvalgi 2 ming yil oldin) Adonis va Astrata, misrliklarning Osiris va Isida miqlariga ulanishiga ishora qilishadi. Shuningdek, qadimgi Sharq xalqlari folklorida ham o'simlik, hosil, don xudosi bo'lgan qahri qattiq yigitni rashkchi Ma'buda sevib qolishi va uni ta'qib qilishi haqidagi afsona mavjud.

Yusuf bilan bog'liq qissalar genezisi ilohiy-muqaddas kitoblar-Tavrot, Zabur, Injil va Qur'oni Karim bilan bog'liq ravishda o'rganilib kelinmoqda. Dastlabki uch muqaddas kitob umumiy Bibliya nomi ostida yuritilib, u ikki qismga: Qadimgi Ahd va Yangi Ahdga bo'linadi. Qadimgi Ahd-Tavrot va Zaburdan iborat. "Yusuf" qissasi ilk bor Musoning "Ibtido" kitobida uchraydi. Bu kitob miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida paydo bo'lgan. Garchi "Ibtido"da bu asar "Yusuf qissasi" yoki "Yusuf va Zulayho" nomi ostida berilmagan bo'lsa ham, 37-bobdan Yusuf bilan bog'liq voqealar boshlanadi va Ya'qub avlodlari Misrga ko'chib borib, u yerda o'rnatilganlari, Yusufning vafot etishi bilan "Ibtido" kitobi yakunlanadi"<sup>1</sup>

Yusuf haqidagi asosiy voqealar tizmasi kitobning 37-bob "Yusufning ko'rgan tushlari" qismidan boshlanadi. Yusuf haqidagi qissaning qisqacha mazmuni quyidagicha: Ya'qub payg'ambarning 12 ta o'g'li bo'lib, eng suyuqlisi Yusuf edi. Akalari otasining Yusufga bo'lgan muhabbati bois unga hasad qiladi. Kunlarning birida Yusuf tush ko'radi (bu vaqtda u 17 yoshda edi) va akalariga so'ylab berdi: Tushimda bizlar ekinzorda bog'lam bog'layotgan ekanmiz. Qarasam, mening bog'lamim yerdan ko'tarilib, tik turgan ekan, sizlarning bog'lamlaringiz esa davra olib, mening bog'lamimga ta'zim qildi". Bu so'zlardan keyin akalarining nafrati yanada ortadi. Yusuf yana bir tush ko'rdi. Ikkinchi tushning tafsilotidan ham og'alar bexabar qolishmadi. Bu safar u tushida quyosh, oy va o'n bir yulduz unga sajda qilayotganini ko'radi. Yusuf tushini akalari bilan birga otasiga ham hikoya qilib bergan edi. Otasi esa: "Bu ko'rgan tushing qanday tush ekan? Nahotki men, onang

<sup>1</sup>Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, B.421-2017.



va akalaring sening oyoqlaringga yiqilib ta'zim qilsak?" deb koyiydi va chuqur o'yga toladi. Ushbu voqealardan so'ng og'alar hasaddan o'zlarini yo'qota boshlaydi.

Tavrotdagi tush voqeasi turkiy adabiyotda yaratilgan "Yusuf va Zulayho" turkumi dostonlaridagi tush epizodlariga juda o'xshash. Shoirlar o'z ijodkorlik mahorati bilan unga yangicha yondashgan va o'zgartirishlar kiritishgan. Lekin Yusufning birinchi tushi boshqa dostonlarning hech birida uchramaydi. Bundan tashqari, kitobda har bir tug'ilgan farzandlarning ismlari qanday ma'no anglatishiga ham e'tibor berilgan. Masalan, Rohila birinchi farzandini dunyoga keltirganida Xudo menga yana boshqa o'g'il ham nasib etsin, deb unga "oradan ko'tarish", "qo'shish", "orttirish" ma'nolarini anglatuvchi – Yusuf ismini beradi. Boshqa tug'ilgan farzandlarning ham ismlari izohlangan. Tavrotdagi ushbu ma'lumotlar keyinchalik Yusuf haqidagi asarlarda o'z ifodasini topgan, lekin kitobning hech bir yerida Zulayho ismiga duch kelmaymiz. Tavrotdagi ushbu qissaning syujetigina "Yusuf va Zulayho" tipidagi asarlarga ko'chgan, undagi g'oya esa ijodkor yashab turgan makon va zamondan kelib chiqqan holda turlicha. Shuning uchun bir dostonda dunyoviy ruh, boshqa birida esa diniy-axloqiy g'oyalar ifodalanadi

Yusuf (a.s.) qissasi Qur'oni karimdagi qissalarning eng go'zali bo'lib, u kishining shonli va sharaflı hayot yo'llari bir necha turkum syujetlarga asos bo'ldi. Adabiyot olamida yusuf turkumidagi nechanecha dostonlar bunyod bo'lib, u kishining tengsiz go'zalliklari hamda shunga muvofiq xulqlari tillarda ash'or bo'ldi. Navoiy ham bu xususda to'xtalib, nasrda ham nazmda ham ko'pchilik uning sharhini tuzganini, jumaladan, Firdavsiy Tusiy, hazrat Abdurohman Al-Jomiy, yana Xoja Mas'ud Iroqiy ham nazm qilib balog'atning dodin beribtur, deya e'tirof etadi. Barcha odamlar jinsidan go'zalroq ekanini ko'rgan Yusuf (a.s.) g'ururga ketdilar va agar men qul bo'lsam edi, mening bahoyimni kim ham bera olardi, deya hayollaridan o'tqazdilar. Har narsani eshituvchi, biluvchi, o'xshashi va tengi yo'q Haq taolo shunday qildiki, savdogarlar uni atigi o'n yetti dirhamga sotib yubordilar. Ushbu voqea faqat Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarigagina ko'chgan. Bu hikoyat o'zidan faxr tuygan har bir inson uchun katta o'rnak manbasi bo'lib, go'zallikda barchadan ustun bo'lgan payg'ambar



ham o‘zini hamisha Xoliqning oldida, uning Jamoli, qudrati oldida hech kim emasligini e’tirof etgani holda amallari hamisha Yaratganga qullikdan o‘zga narsa emasligini anglab, haq yo‘lida sobit turganini o‘qigan o‘quvchi uchun hayot yo‘lida bu qissa dasturulamal bo‘lishi mumkinligi turgan gapdir. Bu qissadan o‘quvchi har bir ish hikmat bilan bo‘lishini, akalari yomonliklar qilganda ham ularga halimlik va ikrom ko‘rsatganm Yusuf (a.s.) singari hamisha haq yo‘lidan toyilmay yurish kerakligini, ibrat oladi hamda qayg‘u va sinovlar girdobida qolgan inson bu qissani o‘qib o‘ziga kuch va yo‘l yo‘riq olishi mumkinligini Navoiy quyidagi hikmati bilan ifoda etadi:

*Bordi Yusuf, qolmasdi Qobus ham bo‘lmay adam,  
Ichtilar jomi fano siddiq ham, zindiq ham.*

### **ADABIYOTLAR**

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: Sano-standart, 2017. - 555 b.
2. Vigouroux F. La Bible et les de`couvertes modernes en Palestine, en Egypte et en Assyrie, T.II, Paris. Berche et Tralin, 1877(2-e издание: 1879). – P. 600.
3. Лопухин А.П. “Библийская история при свете новейших исследований и открытий”, Спб.: Тузов, 1889-1895 (т. I, кн. IV – “Иосиф и его время”).
4. Богородский Я.А. “Об Иосифе, библийском патриархе”, Казань, 1891.
5. Boyzoqova Dilnavoz. “Yusuf va Zulayho” qissasida obraz talqini. “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiyy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya material. 2025-yil 22- aprel, 15-22-betlar